

## Ona tili va adabiyot

Test muallifi: Jaloliddin Bekmurodov

BMBA namunasi asosida tuzilgan

1. Qaysi javobdagi barcha so'zlar **NOTO'G'RI** yozilgan?

- A) *toifa, maxsulot, musobaqa*  
B) *jarrox, xususiy, jangovar*

C) *toyifa, jarroh, tamosha*

D) *maxsulot, musoboqa, hususiy*

2. Qaysi gapda imloviy jihatdan xatolik **MAVJUD EMAS?**

A) *Rejadagi ishlarni amalga oshirishga vaqt yetkaza olmayapsizmi?*

B) *Podsho vaziru-a'yonlari davrasida ot yetaklab borardi.*

C) *Yurtimizda IX-may Xotira va qadrlash kuni sifatida keng nishonlanadi.*

D) *Gapi to'g'rida, u tengi bolalar maktabga borishadi.*

3. Qaysi javobda nuqtalar o'rniqa faqat lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar qo'yiladi?

A) *Uning il...dor, sho'x so'zları dillarni to'lqinlantirar, gur-gur kul...ga sabab bo'lardi.*

B) *Shoir... qalbi samimi va beg'ubor tuyg'ulardan oziqlansa, uning ijod daraxti gurkirab bo'y cho'z...di.*

C) *Ertalab... choy ustida picha hangomalashgach hammamiz yo'lga ot...dik.*

D) *Dunyoviy bilim va hunar...ga ega bo'lgan yosh...imizning fazilatlari haqida soatlab gapurishimiz mumkin.*

4. Quyidagi qaysi gapda gap bo'laklari bilan aloqaga kirishmaydigan bo'laklarning ikki turi qo'llangan?

A) *Albatta, sizga, guruhimiz a'lochilariga, hammamiz ishonamiz.*

B) *Bolalar, ehtimol, siz oq ayiqni ko'rmagandirsiz? Men uni ko'rganman.*

C) *Rahbarimiz o'quvchilarga yuzlanib: "Siz ertaga muzeysga borasiz", - dedi.*

D) *Siz yoshlik qilib bunaqa xomxayollarga borib yurmang, usta!*

5. Quyidagi qaysi qatorda "**kuch**" so'zi hol-qudrat, imkoniyat ma'nosida qo'llangan?

A) *Haydar ota kampirning iroda kuchiga ishonmas, shuning uchun hozir Arslonqulning unga ro'para bo'lishini istamas edi.*

B) *Bu kungi qora sovuq quyosh kuchini-da kesgan edi.*

C) *Sen olgan go'shtning ko'chi yo'q ekan, ovqat yaxshi chiqmadi.*

D) *Qamabarali akani sotib olishga kuchingiz yetmasa kerak.*

6. Quyidagi qaysi qatorda ajratib ko'rsatilgan so'zda metafora usulida ma'nosida ko'chgan so'z qo'llangan?

A) *Bulutning orasidan*

*Quyosh kulib qaraydi.*

*Majnuntolning yuvilgan*

*Sochlari taraydi.*

B) *U yerga termulib parishon dunyo,*

*To'g'rilab oladi qo'lda soatin.*

C) *Bu kishi tirnoqqa zor.*

D) *O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa, Oltin boshning kalla bo'lgani shudir.*

7. Iboralar o'rtasidagi ma'nodoshlik kuzatilmagan qatorni ko'rsating.

A) *esi chiqib ketmoq – jon-poni chiqib ketmoq*

B) *boshi shishmoq – miyasi g'ovlab ketmoq*

C) *xamirdan qil sug 'urganday – xamir uchidan patir*

D) *podadan avval chang chiqarmoq – to'ydan ilgari nog'ora qoqmoq*

8. Tiniq osmon o'zining bor go'zalligi va malohatini cheksiz balandliklardan ulug'vorlik bilan bizga ko'z-ko'z qilib turar edi.

Ushbu gapda qatnashgan sodda yasama so'zlar haqidagi **NOTO'G'RI** hukmni belgilang.



A) *sifatdan yasalagan ot mavjud*

B) *otdan yasalgan sifat qatashgan*

C) *fe'lidan yasalgan sifat qo'llangan*

D) *otdan yasalgan ravish mavjud*

I. Ovgatni yedig-u, meni uyqu bosdi: — Dada, keling, uylaylik.



III. Qani, qo'lni bering, bir tabriklab qo'yay,— dedi zavqi oshib.

9.

Yuqorida har uchala gapda qatnashgan fe'l shakllari qaysi qatorda **TO'G'RI** berilgan?

1) o'timli fe'l 2) II shaxs ko'plik shaklidagi buyruq-istak mayli 3) aniq nisbat 4) III shaxs birlik shaklidagi fe'l 5) o'tgan zamon shaklidagi fe'l

A) 2,4 B) 3, 5 C) 1, 3 D) 1, 5

10. Quyidagi qaysi javobda ega qatnashgan undalmali gap berilgan?

A) *Bulbul, sening makoning shu yerda – odamlar orasida bo'lsin.*

B) *Biror boshqa kasb qilsang bo'lmaydimi, bolam.*

C) *Do'stim, biror narsaga muhtoj bo'lsang, yashirma.*

D) *-Qani, o'g'lim, qarashib yubor, gul ekamiz, – dedi.*

11. Quyidagi qaysi gapda ajratilgan bo'lak qatnashgan?

A) *Chindan ham, mashina dehqonning og'irini yengil qiladigan zabardast kuchga aylandi.*

B) *Muhtaram otalar, onalar, kelinlar, o'g'illar, opasingillar, sizga shu haqda murojaat qilamiz*

C) *Cho'pon otadan bir chaqirimcha pastlikda, Bo'zuvning naq bo'yida, uch-to'rt tup jiyda o'sgan bir xilvat joy bor.*

D) *Tabiat hodisalari: shamol, qor, yomg'ir, do'l o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi.*

## 12. Quyidagi qaysi gaplarda vergul bir xil punktuatsion qoida asosida qo'llangan?

- 1. Yig'ilishda hech kim: na Sa'dulla, na Akbarali bu haqda gapirmadilar.
- 2. Lekin o'rinsiz haq so'zdan, nazarimda, sukut yoki bezarar yolg'on yaxshiroq.
- 3. Muhtaram Umidaxon, sizni tug'ilgan kuningiz bilan chin yurakdan tabriklayman.
- 4. Zorqishloq ko'chalarida, adir va soylarida, serdaraxt bog'larida ko'klam namoyishi kezadi.
- 5. Onasi ham bolasining, baxti qora jigargo'shasining, ko'zlarida shu zor-u mushtoqlik olovini ko'rdi.

A) 4, 5   B) 1, 2   C) 2, 3   D) 1, 4

## 13. Qaysi javobda o'zaro kelishiklar yordamida tobelangan boshqaruvi birikmalar berilgan?

1) o'qigan bola   2) ovqat yemoq   3) birdan kelmoq   4) mактаб bog'i   5) otdan baland   6) tubdan o'zgarmoq  
A) 2, 5   B) 3, 5, 6   C) 1, 3, 4   D) 3, 4, 5

## 14. Quyidagi qaysi gapda ikki xil gap bo'lagi uyushib kelgan?

A) Maxdum bo'ychan, olago'sht, siyrak mo'y, oq tan, istarasi issiq bir domla edi.

### Matnni o'qing va savollarga javob bering.

**Neptun** (belgisi: ♫) — Quyosh sistemasida Quyoshdan uzoqligi bo'yicha 8-sayyora. Ko'zga ko'rinnmaydi, belgisi if yoki T. Fransuz astronomi U. Leveryening matematik hisoblari asosida 1846-yil nemis astronomi I. Galle kashf etgan. Quyoshdan o'rtacha uzoqligi 30,071 astronomik birlik (4498,6 mln. km). Orbitasining eksentrisiteti 0,008, orbita tekisligi ekliptika bilan G46° burchak tashkil etadi. Quyosh atrofidagi aylanish davri 164,788 yil, o'z o'qi atrofida 16 soatda aylanib chiqadi. Neptunning ekvatorial radiusi 24750 km, massasi Yer massasining 17,25 baravariga teng. Neptun moddasining o'rtacha zichligi boshqa gigant-sayyoralarini kabi 1,71 g/sm<sup>3</sup> ga teng. Ekvatorda og'irlik kuchi tezlanishi 15m/s<sup>2</sup>, Neptun sirtida ikkinchi kosmik tezlik 25 km/s. Neptun atmosferasi vodorodning metan bilan bir oz aralashmasidan iborat molekulalaridan tashkil topgan. Neptun tashki qatlamining temperaturasi 200° atrofida. Oddiy ko'z bilan Neptunni kuzatib bo'lmaydi. Teleskopda burchak diametri taxminan 2,5° bo'lgan yashil disk bo'lib ko'rindi. Neptunning 8 ta tabiiy yo'ldoshi bo'lib, ulardan 2 tasi katta — Nerida va Triton bor.

Neptunning kashf etilishi astronomiyaning katta yutuqlaridan biridir. Uran kashf etilgandan ikki yil o'tgandan keyin, 1783-yil rus astronomi A. N. Leksel (1740—84) uning harakatini o'rganib, Uranning hisoblangan yo'ldan muntazam ravishda og'ishini aniqladi, bu og'ish 8-noma'lum sayyoraning ta'siri ekanligini aytgan. Bu gipotezani fransuz fizigi D. F. Arago qo'llab-quvvatlagan. J. K. Adame va U. Leveryelar bir-biridan mustaqil holda uning o'rnini mustaqil ishlab chiqqan.

## 15. Quyidagi qaysi fikr matn mazmunida **AKS ETMAGAN?**

A) Oddiy ko'z bilan Neptunni ko'rib bo'lmaydi.  
B) Neptun sayyorasini nemis astronomi I. Galle kashf etgan.  
C) Neptun uran kashf etilganidan ikki yil keyin kashf etilgan.  
D) Neptun atmosferasi vodorodning metan bilan biroz aralashmasidan iborat molekulalaridan tashkil topgan.

## 16. Matn mazmuniga oid **TO'G'RI ma'lumotni aniqlang.**

A) Neptun ba'zi manbalarda Nerida yoki Triton deb ham yuritiladi.  
B) Neptun moddasining o'rtacha zichligi boshqa gigant sayyoralarikiga mutonosib.  
C) D. F. Arago Uranning hisoblangan yo'ldan muntazam ravishda og'ishini aniqladi  
D) Neptun o'z o'qi atrofida 164,788 yil aylanib chiqadi.

B) Men sizga O'zbekistonning uzoq qishloqlaridan birida o'sgan, beg'ubor yaylov havosida chiniqqa, bir necha bor yirtqich hayvonlar hujumiga yo'liqqa qo'rmas va kamtar, kamgap va qaysar bir bola haqida hikoya qilmoqchiman.

C) Pulemyot, miltiqlarning ovoziga xotin-xalaj, bola-chaqalarning yig'isi, dod-voyi qo'shilib ketdi.

D) Dadasi har kuni ishga ketishda ham, ishdan qaytishda ham uni qo'liga olar, suyar va gaplariga, qiliqlariga zavq bilan kular edi.

## 17. Quyidagi qaysi qatorda vazifadosh zidlov bog'lovchisi qo'llangan?

A) Mamlakatimizda bayramlar ko'p, lekin Navro'zning tarovati, shukuhi o'zgacha.  
B) Xalqni qo'rqtgan emas, balki xalq dardiga sherik bo'lgan odam marddir.  
C) O'qidi-yu, tanidan Chiqib ketdi muzdek ter.  
D) Har mushkulga bardosh berar,  
Chidar mening tosh boshim,  
Ammo sokin, tinch yashashga  
Sira yo'qdir bardoshim.

## 18. Quyidagi qaysi javobda o'zlik nisbatidagi fe'l qo'llanMAgan?

A) Shaharning ko'zga ko'ringan odamlari taklif etilgan.  
B) Ikki qavatlari kottejning hovlisi taxta so'rilar, institut oshxonasidan keltirilgan stol-stullar bilan bezatilgan.  
C) O'n olti martaba to'plandik bizlar  
Rejalar tortishdik yangi ishlarga,  
Nima deyishni bilmaydi dushman,  
Bir reja bo'yicha yugurishlarga!  
D) Kichikka ulug'lik ulug'dan bo'lar,

*Ulug'ga egilsa, kichik qut olar.*

**19.** Bu asarda olim turkiy tildagi so‘zlar ma’nosini arab tilida izohlab beradi. Misol sifatida esa xalq tilida mavjud namunalarga murojaat etadi. Muallifning: «*Men bu kitobni maxsus alifbo tartibida hikmatli so‘zlar, saj’ (qofiyali nasr)lar, maqollar, rajaz (misralari nisbatan uzunroq bo‘lgan she'r turi) va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim... Bu ishda misol tariqasida turklarning tilida qo‘llanib kelgan she'r laridan, shodlik va motam kunlarida qo‘llanadigan hikmatli so‘zlardan, maqollardan keltirdim*», – deyishi bejiz emas.

Ushbu ma’lumot qaysi ijodkor haqida?

A) Nosruddin Rabg’uziy B) Yusuf Xos Hojib

C) Mahmud Koshg’ariy D) Alisher Navoiy

**20.** Quyidagi qaysi voqeа "Saddi Iskandariy" dostonida uchraydi?

A) Asarda qahramon o‘z manziliga yetish uchun ajdaho, Ahraman dev va ikkalasidan ham mushkulroq bo‘lgan tilsimni yengib o‘tadi va o‘z maqsadiga yetadi.

B) Asar qahramoni o‘zining yoshlik chog‘larini o‘yinkulgida o‘tkazib, qariganda g‘ofilligi uchun pushaymon bo‘ladi.

C) Asar qahramoni o‘z manziliga yetish uchun daryo orqali yo‘lga chiqadi, lekin kutilmagan dushman hujumidan unga asir tushadi.

D) Asar qahramoni farzandli bo‘lgandan so‘ng xalqdan keladigan soliqlarni xalqqa ehson qilib beradi va xursandligidan hech kimni jazolamaydi.

**21.** Qaysi qatorda "Ravshan" dostoni qahramoni Hasanxon haqida **TO‘G’RI** ma’lumot berilgan?

A) U o‘z o‘g‘lini safarga kuzatar cho‘g‘ida: "Yomon kuningga yo zar yarar, yoki zo‘r yarar", -deya qirq yigitni o‘g‘liga qo‘shib jo‘natadi.

B) Bu qahramon o‘g‘lining sevgan qizidan kelgan elchilarni kutib oladi, lekin ular olib kelgan xatni o‘g‘liga ko‘rsatmay yashirib qo‘yadi.

C) Bu qahramon tuhmatga ishonib o‘z o‘g‘lidan voz kechadi, ammo qilgan ishidan afsuslanib, qalandarlarga qo‘silib uni izlaydi.

D) Bu qahramon o‘g‘lidan kelgan xatni olib, uch oylik yo‘lni yigirma kunda bosib o‘tadi va o‘g‘lini dushmanlardan ayirib oladi.

**22.** Xojaning Nizomiy Ganjaviy "Xamsa"sining birinchi dostoni "Maxzan ul-asror"ga nazira shaklida (ergashib) yozilgan asarini toping.

A) "Maqsad ul-atvor" B) "Muftoh ul-adl"

C) "Gulzor" D) "Matla ul-anvor"

**23.** Quyidagi qaysi javobda "Kecha va Kunduz" romani qahramonlar haqida **TO‘G’RI** ma’lumot berilgan?

**1. Akbarali**– asarda bu qahramon o‘zidan kattalar gapirsa, havvo-havvo, o‘zidan pastlar gapirsa, yo‘q-yo‘q deya inkor qiladi. Dunyoda o‘zi ixlos qilgan odamdan boshqaning gapini olmaydi.

**2. Miryoqub**– bu qahramon ishbilarmonligi va zukkoligi uchun "epaqa" laqabini oladi, lekin dunyoda ko‘p gunoh ishlar qilganligi uchun o‘z vijdoni oldida o‘zi sud qilinadi.

**3. Razzoq so‘fi**– bu qaharamon yolg‘iz qizini kuyovning davlatiga va amaliga uchib, qolaversa, eshonning qistovi bilan bir necha xotinli amaldorga uzatadi va so‘ngida olam-olam pushaymon bo‘ladi.

**4. Abdusamat** – bu qahramon Akbarali mingboshining ashaddiy dushmanlaridan bo‘lib, uning ustidan hokim to’raga arz qilgan, Qumariqda unga qarshi isyon qilib xalqni tinchsizlantirgan edi.

A) 1, 4 B) 2, 3 C) 1, 2 D) 3, 4

**24.** Quyidagi badiiy asarlar va ularda keltirilgan fikrlar **TO‘G’RI** berilgan qatorni ko‘rsating.

<b>1. Mahbub ul-qulub</b>	...bir odam yaxshi ko‘rgan to‘ppisini tez suvga oqizib, harchand taraddud bila ololmadi. Mahrum bo‘lub qaytur erди: – Yo‘qolg‘oni ham xo‘b bo‘ldi, boshimg‘a ham tor kelur erdi, – deb.
<b>2. Zarbulmasal</b>	O‘zi din, ilmi sunnatga amri ma‘ruf qilg‘uchi erdi, to onki tahoratda qo‘l-oyoqni bandig‘acha yuvmog‘ni farz-sunnat ekanin bilmay, uch angushtni birin yuvub, ikkisini yuvmay qo‘yar erdi.
<b>3. Nasihatlar</b>	Dunyoda kim yomonlik ko‘rmagan deysiz? Umidsizlik – bu g‘ayratsizlikdir. Dunyoda hech muqim narsa yo‘q, shuningdek, yomonlik ham mudom bo‘lmaydi. Axir, qori qalin qahraton qish ketidan ko‘k maysali, tiniq suvli yoz kelmasmu?
<b>4. Hayrat ul-abror</b>	Safar – ayriliqqa uchraganlarni maqsadiga yetkazuvchi va mahrumlarni murod uyiga olib kiruvchidir. Safar – xom odamlarni pishiruvchi va taomlarni singdiruvchidir.

A) 1, 2 B) 2, 4 C) 2, 3 D) 1, 3

**25.** "Oq kema" qissasi hikoyasi voqealari **NOTO‘G’RI** bayon qilingan javobni toping.

A) Asarda Enasoyliklar bir-birlariga qabila boshliqlari vafot etgan paytda hujum qilmaslik odati mavjudligi, ammo buni qirg‘iz qabilasining dushmanlarini buzganligi bayon qilingan.

B) Asarda Bug‘uboyning vasiyati bilan farzandlari uning qabriga eng katta bug‘uning shoxini o‘rnatganligi va buning odat tusiga aylanganligi bayon qilingan.

C) Asarda Xudo unga amaldorlik ato etgan bo‘lsa ham, farzanddan qisib qo‘ygan O‘rozqulning o‘z yaqinlarga zulmi bayon qilingan.

D) Asarda bir umr o‘z nabirasiga shoxdor ona bug‘u avlodlarini ulug‘lab kelgan Mo‘min cholning o‘z qo‘li bilan bug‘u so‘yishga majbur bo‘lganligi bayon qilingan.

**26.** Bundan buyon men bu dunyoning jumla nozne ‘matlaridan nafratlanaman. Ularning hammasi

*o 'tkinchi, haqir, turgan-bitgani sarob ekan. Sizlar, ya 'ni o 'zini ilm-u hikmatda, dunyoni anglab yetishda barkamollikka erishgandek chog 'layotgan mutakabbir bandalar qanchalik kibr-u havoga berilmang, ajal sizlarni yerto 'la va yer ostidagi sichqon-u kalamushlarga qo 'shib, yer yuzidan supurib tashlaydi, ortingizda qolayotgan avlod-u ajdodlarining yaratgan barcha moddiy va ma 'naviy boyliklar kurrayi zamin bilan birgalikda kunpayakun bo 'ladi...*

Ushbu jumlalar qaysi asar qahramoniga tegishli?

- A) "Hamlet"da Hamlet
- B) "Garov"da huquqshunos
- C) "Hayotga muhabbat"da odam
- D) "Temir xotin" Alomat

### G'azalni o'qing va savollarga javob bering.

*Dardini jismim aro asray debon tadbir ila,  
Toza dog' ermas o 'qi zaxmin tutubmen qiyr ila.*

*Toki sham'i anjumandur mohi shabgardim mening,  
Ko 'k shabistonidin oy har tun qochar shabgir ila.*

*Zulfi ichra zor jismim holatin qilsang raqam,  
Ey muharrir, zarhal etqaysen qora tahrir ila.*

*Hadding ermastur debon ishqim meni yozg 'urmakim,*

### Matnni o'qing va savollarga javob bering.

#### Tavsiyanoma

1. Men, Yo'ldoshev Farhod, 1967- yilda tug'ilganman, hozirda Xalqaro „Navro‘z“ xayriya jamg‘armasining Xorazm viloyati bo‘limi raisi bo‘lib ishlaganman.

2. Nazarov Sobir O'ktam o'g'lini 2015- yildan beri yaxshi bilaman. U – chuqur bilimli, yuksak salohiyatli olim. Oila a'zolari, mahalladoshlari, kasbdoshlari bilan munosabatlarda samimiyligi, kamtar va shirinsuhanligi bilan ajralib turadi. Nazarov Sobir Urganch shahrining „Bog'ishamol“ mahallasida o'tkaziladigan barcha tad-birlarda faol qatnashadi.

3. Nazarov Sobir O'ktam o'g'li – shaxsiy manfaatlaridan xalq va davlat manfaatlarini ustun ko'rshini jamoamiz yaxshi biladi va tasdiqlaydi. U har qanday mas'uliyatli vazifani a'lo darajada bajarishiga to'la ishonaman.

2020- yil 18- iyun (imzo)

F. Yo'ldoshev

### 29. Matnda qo'llangan xatoliklar TO'G'RI ko'rsatilgan gapni toping.

- A) 1 – qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik; 2 – ishoraviy (punktuatsion) xatolik; 3 – imloviy xatolik
- B) 1 – ishoraviy (punktuatsion) xatolik; 2 – qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik; 3 – imloviy xatolik
- C) 1 – qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik; 2 – imloviy xatolik; 3 – ishoraviy (punktuatsion) xatolik
- D) 1 – imloviy xatolik; 2 – qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik; 3 – ishoraviy (punktuatsion) xatolik

### 30. Matn mazmuni haqidagi qaysi ma'lumot TO'G'RI EMAS?

- A) Matnning birinchi qismida tavsiya beriluvchi shaxs haqida ma'lumot berilgan.
- B) Matnning ikkinchi qismida tavsiya beriluvchi shaxsnинг shaxsiy sifatlari haqida gapirilgan.
- C) Matnning uchinchi qismida tavsiya beriluvchi shaxsnинг keyingi faoliyatiga ishonch bildirilgan
- D) Matnning ikkinchi qismida tavsiya beriluvchi shaxsnинг jamaot ishlaridagi faolligi tilga olingan.

*Men ham anglarmen, vale ne choradur taqdir ila.*

**27. Ushbu g'azalning badiiy xususiyatlari qaysi javobda NOTO'G'RI berilgan?**

- A) muqayyad qofiya qo'llangan
- B) sodda radif qo'llangan
- C) g'azalning ikkinchi baytida tashxis san'ati qo'llangan
- D) g'azalning to'rtinchi baytida ta'did san'ati qo'llangan

**28. Ushbu g'azal mazmuni haqidagi qaysi ma'lumot TO'G'RI EMAS?**

- A) G'azalda yor solgan dardni jismimda asray deb tirishaman, u otgan o 'q joylarini ham dog' qilmay, toza tutaman deyilgan.
- B) G'azalda ul oy yuzli har kuni anjuman qilsa, ko 'kdagi oy har tun xijolatdan qochib yashirinadi deyilgan.
- C) G'azalda she'rni tahrir qiluvchiga qarata: "Neki yozsang ham, rost so 'zlagin, nomim yorning sochlari kabi qora bo 'ldi", -deyilgan.
- D) G'azalda shoir ishqiga qarata: Hadding emas deb ko 'p koyima, men ham buni yaxshi bilaman, amma taqdirga chora yo 'q deydi.